



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QIB TUSHUNISHGA O‘RGATISHDA O‘QUV LUG‘ATLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

P.Kojalepesova,

NDPI ijtimoiy gumanitar fanlarni masofadan o‘qitish kafedrası assistent o‘qituvchisi

Kojalepesova.periy@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda Til lug‘atlarda aks etadi. Til lug‘atlar asosida o‘rgatilishi kerak. O‘quv lug‘atlari yaratishda ona tili ta‘limi oldiga bugungi davr qo‘yayotgan vazifalarni ham hisobga olish lozim.

Kalit so‘zlar: Til lug‘atlari, frazeologik, paremineologik, o‘quv topshiriqlar, lug‘atlar.

O‘zbek leksikografiyasi keyingi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda, biroq o‘quv lug‘atlari sohasida tadqiqotlar yetarli emas. Til ta‘limining yadrosini tashkil qiladigan mazkur vosita maxsus ilmiy va metodik izlanishlarga katta ehtiyoj sezadi. O‘quv lug‘atlari hozirgi sharoitda qachon zaruratga aylanadi, qachonki, ta‘lim mazmuni ehtiyoj sezsa, o‘quv topshiriqlari tuzishda tizimili ravishda mavzular lug‘atlar bilan bog‘lab borilsa. Til lug‘atlar asosida o‘rgatilishi kerak. O‘quv lug‘atlari yaratishda ona tili ta‘limi oldiga bugungi davr qo‘yayotgan vazifalarni ham hisobga olish lozim. Maktab o‘qituvchilari uchun ona tili darslarida o‘quv lug‘atlarida foydalanish metodikasi ishlab chiqilishi kerak. Amaldagi “Ona tili” darsliklari, asosan izohli lug‘atlardan foydalanishga diqqat qaratgan, aslida imlo, talaffuz, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘rgatishga xizmat qiladigan lug‘atlar bilan baravar ishlashga ham o‘tish kerak.

Darsliklarda ajratib olingan, o‘quvchiga taqdim qilingan lug‘at so‘zlaridan ham tashqariga chiqish kerak. Qolaversa, frazeologik, paremineologik lug‘atlardan ham uzluksiz foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak. O‘quv topshiriqlari shunday takomillashtirilishi kerakki, natijada o‘quvchi turli lug‘atlar orqali so‘zni to‘g‘ri yozishni, talaffuz qilishni, ma’nosini anglashni, o‘rniga boshqa so‘zni qo‘llashni o‘rganishi kerak.

Lug‘at – har qanday mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, iqtisoiy rivojlanishining ramziy timsoli. Lug‘at faqat tilni o‘rganish emas, xalq madaniyati, turmush tarzi va boshqa jihati xususida ham ma’lumot berish uchun xizmat qiladi.

Manbalarda lug‘atning jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi asosiy vazifasi ajratiladi:

- ona tilini va boshqa tilni o‘rgatish;
- ona tilini tasvirlash va me’yorlashtirish;



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

- tillar va madaniyatlararo munosabatni ta'minlash;
- til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish.

Tilshunoslik tizimida leksikografiyaning o'quv lug'atchiligi tarmog'i paydo bo'lgandan buyon, mutaxassislarni o'quv lug'ati qanday lug'at, uni yaratishda qanday mezon ustuvorlik qiladi, asosiy vazifalari nimadan iborat, umumiy lug'atdan nimasi bilan farqlanadi, boshqa tipdagi lug'atdan ustunligi nimada degan savol qiziqtirib kelgan. Jahon tilshunosligida XX asr boshidayoq bu savollarga davr talabidan kelib chiqqan holda muayyan javob berildi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatda o'quv leksikografiyasi o'z taraqqiyotining bir necha bosqichini ortda qoldirib, bugungi kunda zamonaviy tipdagi yangi avlod antropotsentrik o'quv lug'atining yangi-yangi janrini yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanmoqda.

Ma'lumki, har qanday lug'atda nimanidir o'rgatish maqsadi yotadi. Ammo bevosita maktab uchun yaratilgan lug'atgina o'quv lug'ati toifasiga kiritiladi va u maxsus mezonlar asosida tuziladi.

M.A.Skopinaning ma'lumot berishicha, ilk marta "*Ushinskiy* slovar" (o'quv lug'ati) termini rus lug'atchiligida E.D.Polivanovning 1926-yilda yaratilgan "Qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at"i so'z boshisida ishlatiladi. Muallif o'z lug'atini tavsiflar ekan, "hajmiga ko'ra spravochnik lug'at deb bo'lmaydi, uni o'quv lug'ati toifasiga kiritish o'rinli", deydi.

"O'quv lug'atchiligi" termining ilk ta'rifi L.A.Novikovga tegishli, uning o'quv lug'atchiligi vazifalari chegarasi, muammolari va o'quv lug'ati tiplari aniqlashtirilgan "O'quv leksikografiyasi va uning vazifalari" deb nomlangan maqolasida keltiriladi: "Akademik leksikografiya bilan taqqoslaganda o'quv leksikografiyasini hajman kichik va katta ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan leksikografiya".

O'quv leksikografiyasini xarakterlaydigan ushbu mezonlar ("kichik hajm, katta maqsad") P.N.Denisovning "o'quv lug'ati" terminiga bergan ta'rifida ham o'z aksini topadi: "O'quv lug'ati – so'zligi ma'lum bir mezon asosida tartiblangan, o'quv-uslubiy talabga javob beradigan, odatda, hajman kichik bo'lgan, ma'lumotni tezkor va qulay taqdim etadigan kitob".

O'quv lug'ati, odatda, o'quv leksikografiyasining tadqiq ob'yekti. O'rganish ob'yekti – o'quv lug'atining tavsifiy belgilari o'quv leksikografiyasining asosiy vazifalarini belgilab beradi. O'quv lug'atchiligi o'tgan asrning 70-yillarida leksikografiyaning alohida tarmog'i sifatida ajralib chiqadi va o'ziga xos nazariy asosi, maqsadi va vazifasiga ega bo'lgan lingvometodik yo'nalish sifatida taniladi. L.G.Sayaxov ushbu yo'nalishning o'ziga xos belgilari xususiga to'xtalar ekan,



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

“Uning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari, bir tomondan, o‘quv jarayoni – ta‘limning umumiy maqsadi, ikkinchi tomondan – lingvistik maqsad, uning rivojlanish mantig‘i bilan belgilanadi”, – deydi. Aslida ham o‘quv lug‘atchiligi taraqqiyoti faqat leksikografiyaning emas, lingvodidaktikaning ham taraqqiyotiga bog‘liq. Shu bois keyinchalik o‘quv lug‘atiga lingvodidaktik vosita sifatida qarash an‘anaga aylandi. Xususan, V.V.Morkovkinning mashhur “O‘quv leksikografiyasi maxsus lingvometodik yo‘nalish sifatida” deb nomlangan maqolasidan so‘ng o‘quv lug‘atining lingvistik va pedagogik, didaktik vazifalariga e‘tibor qaratish ommalasha boshladi.

“O‘quv leksikografiyasining nazariy asoslari” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida V.V.Morkovkin “o‘quv lug‘ati” terminiga quyidagicha izoh beradi: “Ma‘lumot olish, til o‘rganishga yordam berish maqsadida maxsus yaratilgan har qanday janr va hajmdagi leksikografik asarga o‘quv lug‘ati deyiladi”.

Mutaxassislar o‘quv lug‘atini yaratishda bir-biri bilan uzviy aloqador bo‘lgan ikki asosiy muammoning yechimi, ya‘ni:

- 1) so‘zlikni tanlash, taqdim qilish usuli;
- 2) ta‘limning bosqichi, nutqiy faoliyat vaziyati, nutq uslubi, ta‘lim oluvchining ona tili, madaniy, ma‘naviy saviyasi va boshqalarning hisobga olinishi lozimligini ta‘kidlaydi.

Ana shu mezonlardan kelib chiqib, so‘nggi yillarda “o‘quv leksikografiyasi” termini ta‘rifiga lug‘atning o‘rganilayotgan tilni o‘qitish metodikasi bilan bog‘lanishiga urg‘u berildi, ya‘ni: “o‘quv leksikografiyasi – leksikografiyaning lug‘at yoki lug‘at tipidagi boshqa asarlarda til birliklarining pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan tavsifining nazariy va amaliy aspektini qamrab oladigan maxsus sohasi” deb izohlandi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘quv leksikografiyasi va uning ob‘ekti bo‘lgan o‘quv lug‘atining tavsifiy belgilariga, asosan, uch xususiyat:

- ta‘limiy maqsadga yo‘nalganlik;
- hajman chegaralanganlik;
- til (ona tili yoki boshqa til) o‘qitish uchun mo‘ljallanganlikka urg‘u beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori // “Ma‘rifat” gazetasi. – Toshkent, 2019-yil 5-oktyabr’. – №77.



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // www.lex.uz
3. Abdullaev Y., Omilxonova M., Zufarova S. Imlo lug‘ati. (O‘rta maktab o‘quvchilari uchun). – Toshkent: O‘qituvchi, 1970. – 121 b.
4. Abdurahmonov G‘.A. Shukurov Sh.Sh. XI asr eski turk tilining grammatik ocherki // Devonu lug‘otit turk, Indeks-lug‘at. – Toshkent: 1967.
5. Abdusamatov M. Siz forscha so‘zlashasizmi? (Oyo sho‘mo be forsi harf mizanid?) – Toshkent: 1975. – 175 b.

